



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



shakllantiradi, tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradi hamda barcha fanlardagi o'zlashtirish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Graesser A.C., Singer M., Trabasso T. Constructing Inferences during Narrative Text Comprehension // Psychological Review. – 1994. – Vol. 101, No. 3. – P. 371–395.
2. Jo'rayev U. va boshq., Tarixdan hikoyalar: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2020. – 184 b.
3. Kain K., Oakhill J. Children's Comprehension Problems in Oral and Written Language: A Cognitive Perspective. – New York: Guilford Press, 2007. – 182 p.
4. Kintsch W. Comprehension: A Paradigm for Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 403 p.
5. Perfetti C.A., Stafura J.Z. Word Knowledge in a Theory of Reading Comprehension // Scientific Studies of Reading. – 2014. – Vol. 18, No. 1. – P. 22–37.
6. Van Dijk T.A., Kintsch W. Strategies of Discourse Comprehension. – New York: Academic Press, 1983. – 389 p.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/JZKK4039

**O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA)
РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ**

Odiljonova Nilufar Abduvahob qizi

*13.00.02 – Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 1-kurs tayanch
doktorant Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish xususida so'z yuritiladi. Qayd etish lozimki, til o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmalari ustida ishlash, o'qituvchi tomonidan keltirilgan kompetensiyalarning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga yetkazib berish tinglab tushunishning darajama-daraja rivojlanib borishiga imkon beradi. O'zbek tilini o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'ziga xos usullar maqola davomida tadqiq etildi, shuningdek, A1 va A2 darajadagi misollar tanlangan uslubga mos ravishda namuna sifatida keltirildi. Keltirilgan darajada xos shakllarning tadrijiy ravishda o'rganilishi o'zbek tilini o'rganishda soha mutaxassisi bo'lishga imkon beruvchi omil hisoblanadi. **Kalit so'zlar:** o'zbek tili, xorijiy til, tinglab tushunish ko'nikmasi, kompetensiya, A1 va A2 daraja, tadqiq etish. **Абстрактный.** В данной статье рассматривается развитие навыков аудирования при обучении узбекскому языку как иностранному. Следует отметить, что работа над навыками аудирования при изучении языка и донесение до учащихся содержания и сути компетенций, представляемых преподавателем, позволяет постепенно развивать аудирование. В статье рассматриваются конкретные методы развития навыков аудирования при изучении узбекского языка, а также приводятся примеры из уровней A1 и A2 в соответствии с выбранным методом. Постепенное изучение конкретных форм на вышеуказанном уровне является фактором, позволяющим стать экспертом в области изучения узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, иностранный язык, навыки аудирования, компетентность, уровни A1 и A2, исследование.



Abstract. This article discusses the development of listening comprehension skills in teaching Uzbek as a foreign language. It should be noted that working on listening comprehension skills in language learning, delivering the content and essence of the competencies presented by the teacher to students, allows for the gradual development of listening comprehension. Specific methods for developing listening comprehension skills in learning the Uzbek language were studied throughout the article, and examples of A1 and A2 levels were given as examples in accordance with the chosen method. The gradual study of specific forms at the given level is a factor that allows one to become a specialist in the field of learning the Uzbek language.

Keywords: Uzbek language, foreign language, listening comprehension skills, competence, A1 and A2 levels, research.

Bugungi kunda o'zbek tilining chet tili sifatida o'rganilishi ushbu tilning yanada keng targ'ibotini amalga oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbek tilini xorijiy til o'laroq o'rganish uchun o'qish, yozish, og'zaki muloqot hamda tinglab tushunish ko'nikmalarini darajama-daraja oshirib borish lozim. Bizning ushbu maqolamiz ham ayni yuqorida keltirilgan sektorlardan biri – tinglab tushunish – xususida bo'lib, uning o'zbek tilini chet tili sifatida o'rganilishidagi ahamiyati borasida mulohazalar keltirilgan.

Til o'rganishda tinglab tushunish muhim bo'limlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek tilini o'rganayotgan o'quvchilar ham ushbu ko'nikmani tadrijiy tarzda o'rganishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tinglab tushunishni rivojlantirish orqali o'rganuvchilar ushbu tilda so'zlashuvchilar bilan hech qanday qiyinchiliklarsiz muloqot qilish, xalqning ijtimoiy-madaniy turmushi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbek tilida tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish ushbu ko'nikmaning kundalik hayotimizda faol foydalanganligi evaziga muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda bevosita uzatilgan axborotni dekodlash jarayoni muhim to'rt bosqichda amalga oshadi:

1-diagramma.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganishda tinglab tushunishda axborotni dekodlash jarayoni:

Ma'lumotni qabul qilish jarayoni

Ma'lumotni qayta ishlash

Uzatilgan ma'lumot analizi

Tushunish



Keltirilgan ushbu bosqichlar orqali o'rganilayotgan tilning fonetik xususiyatlari, leksik bazasi, grammatik jihatlari hamda pragmatikasi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganishda ushbu tilga xos kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Tinglovchi matn mazmunini so'zlovchi ohangi hamda mavjud vaziyatni anglash orqali tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, tinglab tushunish jarayonida ikki xil yondashuvga asoslanish ham ushbu ko'nikmaning til o'rganuvchi sifatida egallay olishiga imkon beradi:

1) o'rganuvchi tomonidan matnning alohida fonetik va leksik xususiyatlarini tushunishga harakat qilish.

2) o'rganuvchining mavjud bilim va tajribalarga asoslanishi;

Birinchi tasnifga ko'ra, o'quvchi ushbu til ko'nikmalarini endi egallay boshlagan va uning darajasi, odatga, A klassifikatsiyasiga oid bo'ladi. Keyingi tasnifga muvofiq esa til o'rganuvchi tinglab tushunish darajasini avvaldan egallab kelgan ko'nikmalari orqali yanada rivojlantiradi, bu, odatda, o'zbek tilini o'rganishni ilgariroq boshlagan o'quvchilar uchun xosdir va ularning darajalari egallagan ko'nikmalariga ko'ra B+ ga teng.

O'zbek tilini xorijiy til o'laroq o'qitishda tinglash tushunish kompetensiyalarni rivojlantirishning A1 va A2 darajalarida o'rganish qator xususiyatlarni o'ziga namoyon etadi, ya'ni A1 va A2 darajada o'rganuvchilar qator ko'nikmalarni egallagan bo'lishlari lozim. Qayd etilgan darajalar tadrijiy xususiyatga ega bo'lib, o'zbek tilini xorijiy til tarzida o'rganishda boshlang'ich A1 darajasini egallagan o'rganuvchi quyidagi ko'nikmaga ega bo'ladi:

1-jadval.

O'zbek tilini A1 darajada o'rgangan o'quvchining tinglab tushunish ko'nikmalari aks etgan xususiyatlar

A1	Tanish so'z va iboralarni ajrata olish – kundalik turmushda tez-tez foydalaniladigan so'z va jummalarni (salomlashish, tanishish, oddiy savollarga javob bera olish, raqamlar, ranglar va shu kabi sodda tushunchalarni bilish) ajrata olish
	Asosiy ma'lumotni tushuna olish – bunda oddiy va sodda matnlardan o'rin olgan asosiy ma'lumot (voqelik sodir bo'lgan makon va zamon, kim tomonidan sodir etilgan) haqida tushuna olish
	Kontekstni anglashga harakat qilish – keltirilgan jarayon hamda so'zlovchi ohangiga qarab, matnning umumiy mazmunini qisman tushuna olish
	Identifikatsion ma'lumotlarni tushunish ko'nikmasi – ism, familiya, yosh, yashash manzili va hokazolarga javob bera olish
	Sekin ritmga ega nutqni anglay olish – suhbatdosh tomonidan sekin va aniq tarzda uzatilgan axborotni tushunish ko'nikmasining mavjudligi



2-jadval.

O'zbek tilini A1 darajada o'rgangan o'quvchining tinglab tushunish ko'nikmalari aks etgan xususiyatlar

A2 Kundalik nutqiy pragmatikadan o'rin olgan matnlarni tushunish – savdo-sotiq, transport, oziq-ovqat kabi ijtimoiy turmushda foydalaniladigan nutqiy jarayonlarni anglash ko'nikmasi

Qisqa matnlar, xususan, kichik ertak va hikoyalar, e'lonlar mazmunini tushuna olish ko'nikmasi

Shaxsiy fikr-mulohazalar va his-tuyg'ularni aks ettiruvchi so'z va iboralarni anglash

Turli aksent va talaffuzlarni anglash hamda farqlay olish ko'nikmasi

Murakkab tuzilishdagi gaplardan tashkil topgan matnlarni tinglab tushunish ko'nikmasi

Biroq shuni ham qayd etish kerakki, A1 va A2 darajalaridagi tinglab tushunish jarayonida o'quvchilar ayrim so'z va jumalarni tushunishda qiyinchilikka duch kelishlari mumkin, bu esa til o'rganish jarayonining uzluksiz davom etishini anglatadi. Yuqorida A1, A2 darajalariga xos ko'nikmalarni rivojlantirish uchun turli usullar mavjud bo'lib, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganishda yordam beruvchi omil o'laroq xizmat qiladi¹³⁹:

✚ ushbu tildagi yaratilgan matnlarni tinglash (qo'shiqlar eshitish, film va kinolarni tomosha qilish), ayni jarayonda subtitrdan (ekran yozuvi) ham foydalanish maqsadga muvofiq;

✚ o'zbek tilida gaplashuvchi kishilar bilan muloqot olib borish;

✚ tinglab tushunish ko'nikmalarini oshirishga mo'ljallangan mashqlar bajarish (listening practise), ushbu jarayonda reallikka asoslangan matnlardan foydalanish;

✚ tinglab tushunishga oid materiallarni so'zma-so'z takrorlash kabi omillar o'zbek tilini o'rganishda muhim omil sifatida yordam beradi.

O'zbek tilini chet tili sifatida o'rganishda tinglab tushunishga :r materiallar tanlangan darajaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi bilan birgalikda tinglovchining yosh xususiyatlari, qiziqishlarini ham hisobga olish; kontekst bilan ishlashda matnning tuzilish jihatlariga diqqat qilish; tanlangan mavzuning ijtimoiy-madaniy xususiyat kasb etishi va eng asosiysi materiallar tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishi lozim. Shu jihatlardan kelib chiqqan holda o'zbek tilida tinglab tushunish kompetensiyasini o'stirish uchun qator misol o'laroq namunalar keltirib o'tamiz.

A1 darajadagi tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlardan namunalar

1-mashq. Gaplarni to'ldirish. O'rganuvchilarga uch xil dialog qo'yib eshittiriladi. Har bir dialog so'ngida bitta savol va uch xil javob varianti taqdim etiladi. Javoblar orasidan to'g'risini tanlab topish lozim.

Dialog 1:

- Erkak: Salom, ismingiz nima?

¹³⁹ Listening - Wikipedia



- Ayol: Mening ismim ____.
- Savol: Ayolning ismi nima?
- Variantlar: a) Nodira b) Dildora c) Madina

Dialog 2:

- Jasur: Nonushtaga nima yeysiz?
- Komila: Men non va ____ yeyman.
- Savol: Jasur nonushtaga nima yeydi?
- Variantlar: a) asal b) pishloq c) tuxum

Dialog 3:

- Qiz: Bugun havo qanday?
- Ona: Bugun havo ____.
- Savol: Bugun havo qanday?
- Variantlar: a) sovuq b) issiq c) yomg'irli.

2-mashq. O'qib eshittirilgan matnga muvofiq rasmlarni tanlash. Bunda o'rganuvchilarga matnlar o'qib eshittiriladi. Kontekstdagi ma'lumot aks etgan suratlar qog'ozda ifoda etiladi. Rasmlardan qaysi biri matn orqali uzatilgan ma'lumotga mos ekanligi o'rganuvchilar tomonidan topilishi lozim.

Matn:

Bugun men o'zimizning bog'dan uzilgan qip-qizil olma yedim.

Keltirilgan matnga mos surat variantlariga quyidagilarni keltirish mumkin:



A2 darajadagi tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlardan namunalar

1-mashq. Qisqa matnlarni tinglab, matn asosida savollarga javob berish. O'rganuvchilarga matn o'qib eshittiriladi. Matndan so'ng kontekst asosida tuzilgan savollar beriladi. Ular ushbu savollarga to'g'ri javoblarni yozishlari kerak.

Matn namunasi:

Shahar chiroyli va ozoda. Shaharda ko'p qavatli uylar bor. Keng ko'chalarda mashinalar qatnab turadi. Gulzor va xiyobonlarga haykallar qo'yilgan. Bobomiz Navoiyning haykali ham bor. Uning atrofi gulzor¹⁴⁰.

¹⁴⁰ diktantlar toplami.pdf



Savollar:

1. Qayerlarda haykal qo'yilgan?

2. Kimning haykali bor?

2-mashq. Diagramma bilan ishlash. O'rganuvchilarga qisqa dialog eshittiriladi. Suhbatda aks etgan ma'lumotlar asosida diagramma to'ldiriladi.

Kontekst:

Nodir: Ertaga ob-havo qanday bo'lar ekan-a?

Komil: Bugun bu haqida o'qigandim. Ertaga havo issiq bo'ladi, 26 daraja. Kechga borib esa yomg'ir yog'ishi mumkin.

Diagramma namunasi:

Kun	Harorat	Ob-havo
Ertaga		

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganishda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish darajaviy xususiyatga ega bo'lib, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Buning uchun soha mutaxassislari tomonidan o'ziga xos qo'llanma ishlash chiqish, namunaviy misollarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent, «Fan», 1988.
2. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz. Toshkent, «Fan», 1972.
3. Jalilova M., Ne'matova G. Takrorlash mashg'ulotlarini «Topqirlar bellashuvi» tarzida o'tkazish. «Til va adabiyot ta'limi»jurnali, 1994, 2-3- qo'shma son, 36-37-b.
4. Mahkamov N., Aminov M. O'zbek tilida ish yuritish (munshaot). Toshkent, 1990.
5. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
- Ne'matov H., G'ulomov A., Abduraimova M, Ijodiy matn ustida ishlash. Toshkent, RTMD, 1997.
6. Nurmatova M. Ifodali o'qish to'garagi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 1992, 1-son, 28-31-b.
7. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi UO'T DTS va o'quv dasturi. «Ta'lim taraqqiyoti» axborotnomasining 1-maxsus soni. «Sharq» nashriyot matbaa konserni, 1999, 55-140-b.
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari, Toshkent, «O'qituvchi», 1993.
9. Sayfullayev A., Sayfullayeva R. Ona tili darslarida nutq o'stirish(8-sinf materiallari asosida). Toshkent, 2002, 51 b.
10. To'xtamirzayev M. Nutq o'stirishda muloqotning roli. «Til va adabiyot ta'limi», 1991, 9-son.
11. G'ulomov A., Qobilova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma). Toshkent, «O'qituvchi», 1995.
12. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221 b.
13. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, «Universitet», 2001, 221 b.
14. [diktantlar toplami.pdf](#)
15. [Listening - Wikipedia](#)



<i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>	701
<i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i>	706
<i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>	712
<i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>	716
<i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	721
<i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>	727
<i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>	731
<i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>	735
<i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	742
<i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>	747
<i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>	752
<i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>	756
<i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>	762
<i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>	767
<i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>	774
<i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>	780
<i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	785
<i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>	790

